



Swiss International  
Institute Lausanne

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар  
Маҳкамаси ҳузуридаги таълим сифатини  
назорат қилиш Давлат инспекцияси раҳбари  
Ташкенбаев Улугбек Нигматовичга

Хурматли Улугбек Нигматович!

Swiss International Institute Lausanne – SIIL халқаро институтига уқишга қабул қилинаётган Ўзбекистон Республикаси фуқаролари сони ортиб бораётганлиги ва Ўзбекистон Республикасида Швейцария Олий таълим дипломларини тан олиниш буйича сўровлар келаётганлиги сабабли, Ўзбекистон Республикасида бизнинг институт дипломини нострификация қилиш имконияти борлигини тасдиқлашингизни сурайман.

Шунингдек, Swiss International Institute Lausanne – SIIL Во кантонида рўйхатдан ўтган, бакалавр, магистратура ва тренинглар буйича Швейцариянинг EDUQUA таълим хизматлари сифатининг белгиси билан сертификатланган. Swiss International Institute Lausanne – SIIL битирувчилари Лозанна ҳокимлиги томонидан апостил қўйилган таълим ҳақидаги ҳужжатни олишади.

Институтимизда таҳсил олаётган Ўзбекистон Республикаси фуқаролари учун муҳим бўлган ушбу масала юзасидан тезкор ва аниқ жавобингиз учун сиздан миннатдор буламиз.

Хурмат билан,

Dr. T. Zarubina

---

Grand' Rue 92, 1820 Montreux, Switzerland

[info@siil.ch](mailto:info@siil.ch)

siil.ch



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI TA’LIM SIFATINI NAZORAT QILISH  
DAVLAT INSPEKSIYASI

STATE INSPECTORATE FOR SUPERVISION OF QUALITY IN  
EDUCATION UNDER THE CABINET OF MINISTERS REPUBLIC  
OF UZBEKISTAN

100115, Toshkent shahri, Nurxon ko‘chasi, 21-uy, tel.: (99871) 231-07-53,  
[www.tdi.uz](http://www.tdi.uz), el. pochta: [info@tdi.uz](mailto:info@tdi.uz), [tdi@exat.uz](mailto:tdi@exat.uz)

2022-yil 20 sentabr № 02-1959

“Swiss International Institut  
Lausanne” nodavlat ta’lim  
muassasasiga

Sizning O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga yo‘llagan murojaatingizga javoban quydagini ma’lum qilamiz.

Respublikamizda xorijiy davlatlarda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-iyuldagi 620-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi qonunining 60-moddasida “Xorijiy davlatda 1992-yil 1-yanvardan keyin olingan ta’lim to‘g‘risidagi hujjat tan olish jarayonidan o‘tkazilganidan keyin O‘zbekiston Respublikasining butun hududida qonuniy kuchga ega hujjat sifatida tan olinadi” deb belgilangan.

Yuqorida ko‘rsatilgan Nizomning 34-bandida “Xorijiy ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish haqida ijobiy xulosa berish uchun quydagilar asos hisoblanadi: xorijiy ta’lim to‘g‘risidagi hujjatni bergan ta’lim muassasasi va ushbu muassasa tomonidan berilgan hujjatning o‘sha davlat tomonidan tan olingan bo‘lishi;

xorijiy ta’lim to‘g‘risidagi hujjat berishga asos bo‘lgan ta’lim standartlarining yoki ta’lim dasturlarining O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lgan davlat ta’lim standartlari va ta’lim dasturlariga muvofiqligi;

O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy ta’lim to‘g‘risida hujjatni bergan davlatning ta’lim tizimiga qo‘yilgan umumiy talablarning mosligi.

Shuningdek, Nizomning 36-bandiga asosan tan olish quydagi hollarda rad etiladi:

-Xorijiy davlatlarda kasbiy ma'lumot to‘g‘risida hujjat beradigan ta'limning umumiy me'yoriy davri (to‘liq umumiy o‘rta yoki o‘rta ma'lumot olingandan keyin) O‘zbekiston Respublikasi ta'lim standartlarida nazarda tutilgan davrdan ikki yildan kam bo‘lsa;

-Ta’lim O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilmagan ta’lim shaklida olingan bo‘lsa;

- Bakalavriat bo‘yicha o‘qish muddati uch yildan kam bo‘lsa yoki Yevropa ta’lim tizimi asosida o‘qish davomida 240 dan kam kredit to‘plagan bo‘lsa.

Shulardan kelib chiqib, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 24 iyuldagi 620-son qarori bilan tasdiqlangan «Xorijiy davlatlarda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish tartibi haqida Nizom»ga ko‘ra xorijiy davlatlarda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarga ekspert kommissiyasi tomonidan ijobiy xulosa berilishi uchun quydagilar asos bo‘lib xizmat qilinishini ma’lum qilamiz: ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatni bergan ta’lim

muassasasi o'sha davlat tomonidan tan olingan bo'lishi ya'ni akkreditatsiya guvohnomasiga ega bo'lishi; O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan ta'lim shaklida o'qib olingan bo'lishi; shu bilan birga ushbu ta'lim muassasasi bakalavriatining kunduzgi ta'lim shaklida kamida 3 yil, sirtqi ta'lim shaklida kamida 4 yil ta'lim olgan bo'lishi talab etiladi.

Nizomning 25-bandida "Xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatlar ekspert komissiyalari raislari tomonidan komissiya a'zolari o'rtasida individual tarzda ko'rib chiqish va xulosa berish uchun taqsimlanadi. Ekspert komissiyalari a'zolari tomonidan har bir xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjat bo'yicha alohida xulosa beriladi" deb belgilangan. Xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalarida o'qib olingan diplomlar Nizomda belgilangan tartibda davlat xizmatlari markazi orqali topshirilganidan so'ng ekspert komissiyasi tomonidan ushbu xujjatlar ko'rib chiqiladi va ekspert xulosasi beriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi PQ-279-son "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jaravonlarini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra 2022/2023 o'quv yilidan boshlab: davlat oliy ta'lim muassasalarida ularning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha masofaviy ta'lim shakli joriy etiladi deb belgilangan. Shulardan kelib chiqib, 2022/2023 o'quv yilidan boshlab xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalarining Respublikamizda nazarda tutilgan ta'lim yo'nalishlarida o'qib olingan diplomlari Respublikamiz hududida tan olinishi yuqorida ko'rsatilgan qonun va qonunosti hujjatlari asosida amalga oshirilishini ma'lum qilamiz.

Ma'lum qilamizki xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalarida o'qib olingan diplomlari tan olinishi yuqorida ko'rsatilgan qonun va qonun osti xujjatlari asosida amalga oshiriladi.

"Swiss International Institut Lausanne" – SIIL institutida olingan ta'lim diplomlari yuqoridagi qonun hujjatlari va qonunosti hujjatlariga rioya qilingan holda tan olinadi.

Davlat inspeksiyasi boshlig'ining  
birinchi o'rinbosari



X. Ketmonov

